

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik kreativlikni
yuzaga chiqarishning psixologik jihatlari**

Tog”ayeva Oybarchin Do’smamatovna

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali “boshlang‘ich Ta’lim nazaryasi
va metodikasi” yo’nalishi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kerativ fikrlashga o’rgatishning ilmiy-metodik usullari ko’rsatib berilgan. Talabalar bilan ishlashda o‘qituvchining mustaqil ta’lim topshiriqlarini to’g’ri tashkil etishi, topshiriqlar tizimini to’g’ri qo’llashi kerativlikni yuzaga chiqarishning dastlabki bosqichlari hisoblanadi.

Kalit so’zlar: kreativlik, mustaqil ta’lim, fikrlash.

Abstract: This article shows the scientific and methodical methods of teaching creative thinking of future elementary school teachers. When working with students, the teacher’s correct organization of independent educational tasks, correct application of the system of tasks are the first stages of creativity.

Key words: creativity, independent education, thinking.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko‘p foydalansa, o‘ziga va o‘zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi¹. Bu o‘z navbatida bo‘lajak pedagoglarga psixologik yordam hisoblanadi. O‘qituvchining o‘ziga ishonchi o‘quvchilar ruhiyatiga shunchalik ta’sir o‘tkazadi. O‘ziga ishongan o‘qituvchi bilim beribgina qolmay o‘z o‘quvchilarini ruhlantira oladi.

Pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi. Bunda ularning

. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

¹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi


psixologik bilimi va kasbiy mahorati muhim o`rin egallaydi.

Psixologiya – inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi. Bu fan deyarli barcha fanlar bilan uzviy bog`liq. Xususan, Kreativ pedagogika fani bilan ham. Kreativ pedagogika esa o`z navbatida kreativlikni shakillantirishning asosi hisoblanadi. Bo`lajak o`qituvchilarda avvalo psixologik tayyorlik bo`lishi kerak. Ular turli vaziyatlarda to`g`ri baho bera olishi va qaror qabul qila olishi juda muhim. Sababi ular pedagogik jarayonlarning boshqaruvchisidirlar.

Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish – pedagoglar tomonidan ta`lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta`minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini o`rganadi.

Bo`lg`usi boshlang`ich sinf o`qituvchilari pedagogik kreativlikni o`rganish natijalari pedagogik tajriba tahlili asosida aniqlanadi. **Pedagogik tajriba** (lot. “eksperiment” – “tajriba qilib ko‘rish”) metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o`rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o`z in’ikosiga ega bo`la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.


Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir



E.P.Torrensning shaxsning kreativ sifatlarini namoyon bo`lishini aniqlovchi testlarning turlari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- 
- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
 - 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
 - 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
 - 4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish

Oliy ta’limda esa o‘qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. “Kreativlik darslarida talabalar birgina “to‘g‘ri” javobni izlash o‘rniga o‘zlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalar kreativ bo‘ladi (Simonton, 1999). O‘quvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo‘yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo‘lsada, turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; xavotir kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992).

Talabalarni yo‘naltirish talabalarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘z o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi (Amabile, 1998).

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta'minlash, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)"².

Shu o'rinda kreativlik darajasini o'rganishda ta'lim muassasasining psixolog o'qituvchilari tomonidan tashkil etiladigan amaliy trening mashg'ulotlar ayni muddaodir. Mashg'ulotlar davomida o'quvchi psixologiyasi ularning qiziqishlari va kreativlikni rivojlantirishdagi muammolari o'rganiladi. Natijada maxsus fan o'qituvchilari uchun ancha qulaylik yuzaga keladi. Endi ular bemalol o'quvchilarning qobilyati, qiziqishi va muammolaridan kelib chiqib dars tashkil etishadi va topshiriqlarni ham shu asosida taqsimlashadi.

Xulosa qilib aytganda bo`lg`usi boshlang`ich sinf o`qituvchilarida mustaqil fikrlashni shakillantirish va kreativlikni oshirishda ularning psixologik tayyorligi va qobilyatidan kelib chiqib yondashish ularning imkonyati darajasida yangi natijaga olib chiqish juda muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
2. Karimova B. E. Kreativ Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022
3. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M, Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet.
4. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D. R., MuhammadiyevaS. V., Sheranova M. B. Umumiy Pedagogika. Darslik. –Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2021.

²Karimova B. E. Kreativ Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022